IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026**

# MAQSUD SHAYXZODA SHE'RLARIDA G`ALABA SHUKUHI VA QALB IZTIROBI

**Eshmuhamedova Saygul**
Nizomiy nomidagi O`zbekiston
Milliy Pedagogika Universiteti 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23672840

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning urush yillarida yaratgan she'rlarida g`alaba mavzusining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning "Shu soatda" she'ri hamda frontdan qaytgan jangchilarga bag`ishlangan she'rlari misolida g`alaba shukuhi, urushning og`ir oqibatlari, xalqning matonati va tinchlikning bebaho qadri yoritiladi. Shuningdek, shoirning badiiy mahorati, ramziy obrazlardan foydalanish usuli hamda asarlarining bugungi davrdagi ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so`zlar:** Maqsud Shayxzoda, g`alaba, urush, tinchlik, she'riyat, badiiy talqin, vatanparvarlik, matonat, inson qalbi.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется художественное воплощение темы Победы в стихах Максуда Шайхзаде, созданных в годы войны. На примере стихотворения поэта «В этот час» (Shu soatda) и произведений, посвященных вернувшимся с фронта воинам, освещаются дух Победы, тяжелые последствия войны, стойкость народа и бесценная значимость мира. Также раскрываются художественное мастерство поэта, использование символических образов и духовно-воспитательное значение его произведений в современный период.

**Ключевые слова:** Максуд Шайхзаде, победа, В этот час (Shu soatda), война, мир, поэзия, художественная интерпретация, патриотизм, стойкость, человеческая душа.

**ABSTRACT**

This article analyzes the artistic interpretation of the theme of Victory in the poetry of Maqsud Shayxzoda written during the war years. Through the poet's poem "At This Hour" (Shu soatda) and works dedicated to soldiers returning from the front, the spirit of Victory, the severe consequences of war, the resilience of the people, and the priceless value of peace are highlighted. Furthermore, the poet's artistic mastery, use of symbolic images, and the spiritual and educational significance of his works today are revealed.

**Keywords:** Maqsud Shayxzoda, victory, At This Hour (Shu soatda), war, peace, poetry, artistic interpretation, patriotism, resilience, human soul.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodida Vatanga muhabbat, insonparvarlik va tinchlik g`oyalari alohida o`rin tutadi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida yaratgan she'rlarida xalqning iztirobi, matonati va g`alabaga bo'lgan ishonchi yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagan.

Ba’zi g`alabalar tarix sahifalariga bitiladi, ba’zilari esa inson qalbiga abadiy muhrlanadi. Ikkinchi jahon urushidagi g`alaba ana shunday tarixiy voqealardan biridir. Bu g`alaba millionlab insonlarning ko‘z yoshi, sabri, sog`inchi va cheksiz umidi evaziga qo`lga kiritildi. Maqsud Shayxzoda esa bu ulug` lahzani shunchaki kuzatmagan, uni xalq bilan birga yashagan, his qilgan va qalbidan o`tkazib, she’rga aylantirgan ijodkordir.

Maqsud Shayxzodaning "Xarita oldida"[1], " Chorak asr", "Kapitan Gastello", " Shu soatda", " Zafar saodati" kabi she’rlar va to`plamlarida urush yillaridagi kechinmalari va g`alaba lahzalari yorqin badiiy ifodasini topgan. Asarda shoirning tarixiy voqealarni oddiy kuzatuvchi sifatida emas, balki xalq dardi va quvonchini o`z qalbi orqali his etgan ijodkor sifatidagi qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Urush tugaganligi haqidagi xabarni eshitgan shoirning: "Sakina! G`alaba! Bolalarni uyg`ot! Bayramni boshlaymiz!" deya hayajon bilan murojaat qilishi oddiy quvonch emas. Bu — to`rt yil davom etgan iztirob, bedor tunlar, yurakni ezgan sog`inch va xavotirning bir lahzada quvonch ko`z yoshlariga aylanishi. Shu birgina sahna orqali muallif g`alabaning naqadar uzoq kutilganligini kitobxon qalbiga chuqur his ettira oladi.[2] Shayxzoda bu quvonchni shunchaki nishonlab qo`ymaydi. U darhol qog`oz va qalamga yuzlanadi. Chinakam shoir tarixni qalam bilan emas, qalbi bilan yozadi. O`sha paytning o`zidayoq yaratilgan "Shu soatda" she’ri o`zbek she’riyatida tarixiy g`alaba munosabati bilan yozilgan ilk she’r sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. "Xush kelding, ey Zafar muhlati, Do`stlar, qo‘ying yangi sarnoma, Umrlarning guli keladi, Endi boshlang to`y-u hangoma. Ushbu misralardagi "umrlarning guli" obrazi she’rning eng go‘zal badiiy topilmalaridan biridir. Shoir g`alabani faqat urushning tugashi sifatida emas, balki hayotning qayta uyg`onishi, bolalarning qo`rquvsiz kulgisi, onalarning taskin topgan ko`ngli va insoniyatning tinch hayot sari qaytishining timsoli sifatida tasvirlaydi. Birgina obraz orqali urush va tinchlik o`rtasidagi ulkan tafovut nihoyatda ta’sirchan ifodalangan. Asarning yana bir ta’sirli sahnasi frontdan qaytgan jangchilarni kutib olish manzarasidir. Vokzalda quvonch hukm surayotgan bo`lsa-da, bu quvonchning bag`rida alam ham yashiringan edi. Kimdir yaqinini bag`riga bosar, kimdir esa qo`li yoki oyog`idan ayrilgan holda Vatanga qaytar, yana kimningdir qalbida qaytmay qolgan safdoshlar armoni yashardi. Ana shunday og`riqli manzara fonida shoirning quyidagi satrlari yangraydi: "O`tib ketar, bitib ketar yaralar, dardlar, Jahannamga tushib ketdi murdor nomardlar."[3] Bu misralarda faqat taskin emas, balki xalqning bukilmas irodasi va ertangi kunga bo`lgan ishonchi ham mujassam. Shoirning nazarida tanadagi jarohatlar vaqt o`tishi bilan bitishi mumkin, ammo ozodlik va tinchlik yo`lida ko‘rsatilgan jasorat xalq xotirasida abadiy yashaydi. Maqsud Shayxzodaning buyukligi shundaki, u urushni quruq tarixiy voqea yoki raqamlar orqali emas, inson qalbi orqali tasvirlay oldi. Uning she’rlarida g`alabaning shukuhi ham, ayriliqning iztirobi ham, ertangi kunga bo‘lgan mustahkam ishonch ham uyg‘unlashgan.

[1] Karimov Obidjon. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar: o'quv-uslubiy qo'llanma “Namangan” 2016

[2] https://n.ziyouz.com/

[3] Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. – Toshkent: "Sharq", 2009.

G‘alaba bayramini nishonlash oson, ammo o`sha g`alabani keltirgan insonlarning dardi, jasorati va fidoyiligini his qila olish chin vatanparvarlik belgisidir. Tinchlik bizga shunchaki meros bo`lib qolmagan, u ajdodlarimizning eng qimmat bahoga qo`lga kiritgan omonatidir. Uni asrash, qadrlash va kelajak avlodga butun holda yetkazish esa bugungi avlodning eng muqaddas burchidir.

Maqsud Shayxzoda she’rlari bugun ham kitobxonni tarix saboqlarini unutmaslikka, tinchlikni eng oliy ne’mat sifatida qadrlashga va ajdodlar jasoratiga munosib bo`lishga undaydi. Ana shu jihati bilan uning g`alaba haqidagi she’rlari o`zbek adabiyotining yuksak badiiy va ma’naviy merosi sifatida hamisha qadr topadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. – Toshkent: "Sharq", 2009.
2. Karimov Obidjon. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar: o'quv-uslubiy qo'llanma “Namangan” 2016.
3. https://n.ziyouz.com/